



UDK: 377/378:316.346.32-053.6:347(575.1)

Shohruh YO'LDASHEV,
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
E-mail: yoldashev.2023@inbox.ru

professor, sot.f.d. M.Bekmuradov taqrizi asosida

O'ZBEKISTON YOSHLARINING HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATNINIG SHAKLLANISHI

Аннотация

Mazkur maqolada muallif yoshlarning huquqiy madaniyatini nazariy va amaliy jihatdan tahlil etgan hamda yoshlarning huquqiy madaniyatini o'zgartirishga nisbatan huquqshunolar olimlarning fikrlarini o'rganib, yoshlar faoliyatida huquqiy madaniyatni yangi bosqichga olib chiqqan holda huquqiy madaniyat va huquqiy ong o'rtasidagi nisbatni tahlil etgan hamda ularning bir-biridan farq qiluvchi alohida, mustaqil konstruksiya ekanligini asoslab bergan.

Kalit so'zlar: Huquqiy madaniyat, huquqiy madaniyatni yangi bosqichga olib chiqish, huquqiy ong, huquqiy shaklini o'zgartirish, ta'sis hujjatlari, davlat yoshlar huquqi, yoshlar madaniyati.

ФОРМИРОВАНИЕ ПРАВОВОГО СОЗНАНИЯ И ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЕЖИ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

В статье автор теоретически и практически анализирует сущность правовой культуры молодежи, исследует взгляды ученых на изменение правовой культуры молодежи, анализирует взаимосвязь правовой культуры и правового сознания, выводом правовую культуру на новый уровень в России. молодежной деятельности, и он доказывает, что эти два юридических термина являются независимой конструкцией.

Ключевые слова: Правовая культура, вывод правовой культуры на новый уровень, правовое сознание, изменение правовой формы, учредительные документы, государственное молодежное право, молодежная культура.

FORMATION OF LEGAL CONSCIOUSNESS AND LEGAL CULTURE OF UZBEKISTAN YOUTH

Annotation

In this article, the author analyzes the essence of legal culture of young people theoretically and practically, studies the views of scholars on changing the legal culture of young people, analyzes the relationship between legal culture and legal consciousness bringing legal culture to a new level in youth activities and he proves that these two legal terms are an independent construction.

Key words: Legal culture, bringing legal culture to a new level, legal consciousness, changing the legal form, constituent documents, state youth law, youth culture.

Kirish. Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylilikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda milliy huquq tizimini tubdan isloh qilish, jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish hamda malakali yuridik kadrlarni tayyorlash borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, inson huquq va erkinliklariga hurmat munosabatini shakllantirishga, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda fuqarolarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirishga to'sqinlik qiluvchi bir qator muammo va kamchiliklar saqlanib qolinmoqda.

Yurtimizda mustaqillik yillarida barkamol avlod kamoloti, yoshlarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, orzu-umidlarini ro'yobga chiqarish masalasiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. O'g'il-qizlarni har tomonlama yetuk, bilimli, salohiyatli shaxs, komil inson sifatida tarbiyalash masalasiga o'ziga xos tarzda, zamonaviy usullar asosida yondashilmoqda, ularning tashkiliy-huquqiy asoslari tizimli ravishda takomillashib bormoqda. Bugun mamlakatimiz yoshlari tomonidan erishilayotgan ulkan yutuqlar zamirida istiqbolning ilk yillaridan boshlab yoshlar tarbiyasi, ta'limi, umuman, kadrlar tayyorlash tizimiga alohida e'tibor qaratilgani mujassam. Mamlakatimizda yoshlarga berilayotgan e'tibor, ularga davlat tomonidan ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik miqyosi yildan yilga kengayib bormoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylilikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda milliy huquq tizimini tubdan isloh qilish, jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish hamda malakali yuridik kadrlarni tayyorlash borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, inson huquq va erkinliklariga hurmat munosabatini shakllantirishga, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda fuqarolarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirishga to'sqinlik qiluvchi bir qator muammo va kamchiliklar saqlanib qolinmoqda.

Xususan, huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, huquqiy ta'lim va tarbiya borasidagi ishlar tizimli va uzviy olib borilmayapti. Uzoq yillar davomida bu masala huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ayrim davlat organlarining ishi sifatida qarab kelinib, bunda oila, mahalla va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ishtiroki yetarli-chi ta'minlanmagan.

Yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg'otish ishiga kompleks tarzda yondashilmadi.

Aholining huquqiy bilimlarini oshirishga doir vazifalarning umumiy tusda belgilanganligi hamda ularni amalga oshirishning aniq ta'sirchan mexanizmi mavjud emasligi jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasidagi ishlarning samarasiz olib borilayotganligini ko'rsatadi.

Kanadalik sotsiolog M. McLuhan "huquqiy madaniyat" ni yanada chuqur tahlil qildilar. U, D. Bell kabi, ommaviy axborot vositalarining yangi turdagi madaniyatni yaratishi haqidagi xulosaga keladi. McLuhan "sanoat va

tipografik odam" davrining boshlang'ich nuqtasi XV asr bosma matbuotida ixtiro ekanligini ta'kidlaydi. San'atni ma'naviy madaniyatning yetakchi elementi sifatida belgilaydigan, badiiy madaniyatning qochoq (ya'ni haqiqatdan burilmoq) funksiyasini ta'kidlaydi.

Albatta, bu kunlarda massa sezilarli darajada o'zgardi. Odamlar bilim, axborot berildi. Bundan tashqari, bugungi kunda ommaviy madaniyat mavzusi nafaqat ommaviy, balki turli aloqalar bilan birlashgan shaxslar hamdir. O'z navbatida, "ommaviy madaniyat" tushunchasi zamonaviy madaniyat qadriyatlarini ishlab chiqarishning ushbu madaniyatni ommaviy iste'mol qilish uchun mo'ljallangan xususiyatlarini tasvirlaydi.

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridan o'zgarish, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, zamon talablariga javob beradigan mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratish bo'yicha maqsadli yo'naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jamiyat taraqqiyotini ilm-fan rivojini tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki, ilm-fan ishlab chiqarish, uning moddiy asosini yaratish, texnologik rivojlantirish va eng asosiysi-kadrlar bilan ta'minlash vazifalarini o'z zimmasiga oladi.

Mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishda muhim ahamiyatga ega ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlarini amalga oshirish keng joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yoshlar jamiyatimizni rivojlantiruvchi kuch, vatanimiz kelajagi, mamlakatimizning jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashi aynan yoshlarimizning yuqori intellektual salohiyatga ega bo'lishiga bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Yurtimiz yoshlarining munosib vakillari, ertangi kunimiz egalari bo'lgan siz, aziz o'g'il-qizlaringiz davrasida yoshimiz, lavozimdagi farqlarga e'tibor bermasdan, xuddiki sizlar bilan teng bo'lib, chin dildan, samimiy bir suhbat qurishni anchadan beri orzu qilib kelaydim. Bugun sizlarning qalbingiz, yuragingizdagi o'y-fikrlar, maqsad-muddaolar, kerak bo'lsa, ushalmay turgan niyatlar bilan yaqindan tanishish, shu asosda yoshlar siyosati bo'yicha olib borayotgan ishlarimizni tanqidiy baholab, tegishli qarorlar qabul qilishni men o'z faoliyatim uchun g'oyat muhim, deb hisoblayman. Ma'lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo, biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda"

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Mamlakatimizda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida mustahkam huquqiy baza yaratilgan. U Bosh qomusimiz va ko'plab qonunlarda o'z ifodasini topgan. Xususan, o'tgan bir yil ichida mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirishga qaratilgan 25 ta qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilindi. Shu bilan birga, O'zbekiston yoshlarning huquq va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan 30 dan ortiq xalqaro huquqiy hujjatni ratifikatsiya qilgan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2016 yil 14 sentabrda imzolangan "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonun mazkur yo'nalishdagi ishlarni yangi bosqichga ko'tardi. Ushbu hujjat yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, faolligini oshirish, ijodiy va intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish, mafkuraviy tahdidlarga qarshi immunitetini mustahkamlash, bandligini ta'minlash borasidagi ishlarni yanada kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Mazkur qonunni qabul qilish jarayonida milliy qonunchiligimiz amaliyotida birinchi marotaba yoshlarning keng qatlami, jumladan, O'zbekiston yoshlar ittifoqi a'zolari, siyosiy partiyalarning "Yoshlar qanoti" vakillari va faol yoshlarning taklif-mulohazalari inobatga olingan edi. Ushbu hujjatda yoshlarning huquq va manfaatlarini to'liq, ishonchli mustahkamlangan. Davlatimiz rahbarining bevosita tashabbusi

bilan yurtimizda Yoshlar ittifoqining tashkil etilganligi va 30 iyun – Yoshlar kuni deb e'lon qilinishi esa ushbu yo'nalishdagi sa'y-harakatlarning mantiqiy davomi bo'ldi. Davlatimiz rahbarining bevosita tashabbusi bilan yurtimizda turli soha va tarmoqlarda yuksak natijalarga erishayotgan yoshlarimizni munosib taqdirlash maqsadida "Mard o'g'lon" davlat mukofoti hamda "Kelajak bunyodkori" medallari ta'sis etilgan ham kelajagimiz egalarining yuksak maqsadlar sari intilishlarida munosib rag'bat vazifasini o'tamoqda. Eng ahamiyatlisi, mamlakatimizda qisqa davr ichida yoshlarga oid davlat siyosati bugungi davr talablaridan kelib chiqib tubdan takomillashtirildi, balki bu borada O'zbekiston jahon hamjamiyatiga o'rnak bo'lib, dunyo yoshlarining taqdiriga daxldor dolzarb masalalar bo'yicha tashabbuslar bilan chiqayotgani barchamizga g'urur bag'ishlaydi

Xususan, Prezidentimizning taklifiga binoan Qonunchilik palatasida yoshlar masalalari bo'yicha komissiyaning tuzilishi mamlakatimizning milliy boyligi va kelajagi bo'lgan yoshlar bilan ishlarni sifatli tashkil etish yuzasidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning mantiqiy davomi bo'ldi. Ushbu komissiyaning tuzilishi davlat va jamiyat boshqaruvida yoshlarning ishtirokini amaliy jihatdan ta'minlash orqali yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish borasida Qonunchilik palatasining salohiyatini oshirish imkonini bermoqda. Shu tariqa, xalq vakillari yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashda, ularning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy faolligini oshirishda bevosita ishtirok etmoqda. Oliy Majlis Qonunchilik palatasida tashkil etilgan yoshlar masalalari bo'yicha komissiya, o'z navbatida, yoshlarning, ayniqsa, uyushmagan, ish bilan band bo'lmagan, muayyan bir mashg'ulotga ega bo'lmagan yoshlarning zamonaviy kasb-hunarlarini egallashi uchun munosib shart-sharoit yaratishga, ularning bandligini ta'minlashga, ishbilarmonlik ko'nikmalarini rivojlantirishga, ularning tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, bugungi kunda qonun loyihalari muhokamalarida ishtirok etish uchun yoshlarni jalb etish parlament quyi palatasi faoliyatidagi yangiliklardan biriga aylandi. O'zbekiston yoshlar ittifoqi vakillari Qonunchilik palatasi ko'mitalari huzurida faoliyat yuritayotgan ekspertlar guruhi tarkibiga kiritildi. Mamlakatimiz yoshlarining siyosiy-huquqiy savodxonligi hamda ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi faolligini oshirishda siyosiy partiyalarning ham alohida o'rni borligini ta'kidlash lozim.

Xususan, huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, huquqiy ta'lim va tarbiya borasidagi ishlar tizimli va uzviy olib borilmayapti. Uzoq yillar davomida bu masala huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ayrim davlat organlarining ishi sifatida qarab kelinib, bunda oila, mahalla va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ishtiroki yetarlicha ta'minlanmagan.

Yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq qoidalari-ga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissiini uyg'otish ishiga kompleks tarzda yondashilmadi.

Aholining huquqiy bilimlarini oshirishga doir vazifalarning umumiy tusda belgilanganligi hamda ularni amalga oshirishning aniq ta'sirchan mexanizmi mavjud emasligi jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasidagi ishlarning samarasiz olib borilayotganligini ko'rsatadi.

Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlarini o'rnatidagi muvozanatni saqlash g'oyalarini aholi ongiga singdirish ishlarning yetarli olib borilmasligi ham qonun ustuvorligini ta'minlashga o'zining jiddiy salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

Aholining huquqiy bilimlari yetarli emasligi, shuningdek, davlat organlarining qonunga xilof qarorlari ustidan sudga shikoyat qilish imkoniyatidan deyarli foydalanmasligi

mansabdor shaxslar tomonidan fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishi holatlarining vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda.

Bundan tashqari, hozirgi globalashuv, ilmiy-texnik taraqqiyot davrida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishning innovatsion usullaridan, targ'ibotning ilg'or va ta'sirchan vositalaridan, xorijiy davlatlarning bu boradagi ijobiy tajribalaridan yetarli darajada foydalanilmayapti.

Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga doir ishlar samaradorligini yanada takomillashtirish, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan uyg'un ravishda huquqiy bilimlarini oshirib borishning zamonaviy usullarini joriy etish, shuningdek, aholini, ayniqsa, yoshlarni zararli axborotlardan himoya qilish bo'yicha mustahkam huquqiy immunitetni shakllantirish maqsadida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, inson huquq va erkinliklariga hurmat munosabatini shakllantirishga, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda fuqarolarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirishga to'sqinlik qiluvchi bir qator muammo va kamchiliklar saqlanib qolinmoqda.

Xususan:

- birinchidan, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish ishlari tizimli va uzviy tashkil etilmayapti. Jamiyatda, oilada, mahallada, ta'lim muassasalarida va tashkilotlarda huquqiy axborotlarni yetkazishning ta'sirchan mexanizmi mavjud emas. Shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash g'oyalari aholi, ayniqsa, davlat xizmatchilari ongiga yetarli darajada singdirilmayapti;

- ikkinchidan, uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim jarayonlari huquqiy tarbiya bilan uyg'un olib borilmayapti, aholi, ayniqsa, yoshlarning huquqiy madaniyatini shakllantirishda o'zbek xalqining tarixi, dini, urf-odatlarini, milliy qadriyatlariga tayanilmayapti;

- uchinchidan, huquqiy madaniyatni yuksaltirishga doir tadbirlarni tashkil etishda nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan samarali hamkorlik tizimi yaratilmagan, ijtimoiy sheriklik prinsipi asosida ishlar tashkil etilmagan;

- to'rtinchidan, yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirishning aniq maqsadli chora-tadbirlari belgilanmagan;

- beshinchidan, jamiyatda manzilli huquqiy targ'ibot tadbirlarini tashkil etishda va amalga oshirishda davlat organlari va boshqa sohaviy xizmatlarning faol ishtiroki ta'minlanmayapti, bu borada yuqori natijadorlik va samaradorlik ko'zga tashlanmayapti;

- oltinchidan, huquqiy tadbirlar hamon an'anaviy usullarda, oddiy uchrashuvlarni o'tkazish yo'li bilan amalga oshirilmoqda, bu borada targ'ibotning innovatsion usullaridan, shu jumladan, veb-texnologiyalardan foydalanilmayapti, huquqiy yo'nalishdagi veb-saytlar yetarli emas;

- yettinchidan, huquqiy savodxonlikni oshirishga qaratilgan loyihalarni rag'batlantirishning huquqiy mexanizmlari mavjud emas, bu borada tadbirlar nomigagina tashkil etilmoqda, huquqiy bilimlarni yuksaltirish bo'yicha huquqiy adabiyotlarni chop etish va tarqatish, ilmiy izlanishlarni olib borish ishlari samarasiz amalga oshirilmoqda.

Xulosa va takliflar (Conclusion and recommendations). Hozirgi kunda Yangi O'zbekiston jamiyatida huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayoni davom etmoqda. Huquqiy tizimda, huquqiy ongda, O'zbekiston jamiyatining huquqiy madaniyatida o'zgarishlar ro'y berdi va sodir bo'lmoqda. O'zgargan ijtimoiy-siyosiy sharoitlar munosabati bilan davlatimizga fuqarolarning sifat jihatidan yangi huquqiy madaniyati zarur.

- Jamiyatning huquqiy madaniyati jamiyat tomonidan yaratilgan ma'naviy qadriyatlarining tarkibiy qismidir. Huquqiy ong darajasi, rivojlangan huquqiy tizim, mustaqil adolat, inson va fuqarolar huquq va erkinliklarining ishonchli kafolatlari; huquqiy savodxonlik aholi - jamiyat tomonidan yaratilgan ma'naviy qadriyatlar tizimining eng muhim elementlaridan biri.

- Ko'rish imkoniga ega bo'lganimizdek, huquqiy madaniyat huquqiy davlat, fuqarolik va sivilizatsiya jamiyatining ajralmas tarkibiy qismidir.

O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, adolat tuyg'usi va huquqiy madaniyati yuksalmasa, fuqarolik jamiyatini barpo etib bo'lmaydi. Fuqarolik jamiyati shunday qadriyatlar tizimi bilan tavsiflanadi, unda demokratik huquqlar va erkinlik:

- shaxsiy erkinlik;
- fuqarolarning immuniteti va xavfsizligi;
- mustaqil birlashmalarning faoliyati va boshqalar.

Shunday qilib, shakllanayotgan fuqarolik jamiyati hayotida huquqning rivojlanishi va ahamiyati uchun shart-sharoitlar yaratish uchun asos huquqiy madaniyat masalalari bo'lishi kerak.

АДАБИЁТЛАР

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Жамиятда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни юксалтириш тизimini тубдан такомиллаштириш тўғрисида пф-5618-сон 09.01.2019 й. Фармони
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон Фармони.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизimini 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиqlаш тўғрисида”ги 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сон Фармони.
4. Жисмоний ва маънавий етук ёшлар – эзгу мақсадларимизга етишда таянчимиз ва суянчимизди// Президент Шавкат Мирзиёевнинг “Камолот” ёшлар ижтимоий ҳаракатининг IV курултойидаги нутқи/ 01.06.2018.
5. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi milliy qonunlar bazasi, Adliya vazirligi sayti.
6. www.minjust.uz – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi rasmiy sayti.
7. www.uz.uz – O'zbekiston milliy axborot agentligi.
8. www.pfru.uz – Respublika tibbiy ijtimoiy ekspertiza inspeksiyasi.